



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIATGA OID VARIATIV TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Norbo'tayev X.B.

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti
dekani pedagogika fanlari doktori (DSc.), professor.*

Tayanch so'zlar: tabiiy fanlar, variativ tushunchalar, fanlararo aloqadorlik, dars, boshlang'ich ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, fan, texnologiya, zamonaviy rivojlanish, tamoyil, takomillashtirish, maktab, o'quvchilar, shakl, metod, vosita, tabiat, jamiyat atrof-muhit, inson va tabiat, takomillashtirish.

Ключевые слова: природные дисциплины, вариатив тушунчалар, дисциплины коммуникадорлик, дарс, бошлангич, билим, кунникма, навъки, компетенции, дисциплина, технология, современное развитие, тенденция, модернизация, школа, укучилар, форма, метод, средство, природа, окружающая среда, человек и природа, модернизация.

Key words: natural sciences, variative concepts, interdisciplinary engagement, lesson, primary education, knowledge, skills, competence, competence, science, technology, modern development, principle, improvement, school, students, form, method, medium, nature, community environment, human and nature, improvement.

Jahon miqyosida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatini shakllantirishda uzliksiz ta'limning asosiy bog'ini hisoblangan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda variativ tushunchalarni shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, o'quvchilarning atrof-muhit va o'quv materiallari bilan o'zaro aloqasini tashkil etish natijasida o'quvchilarning ijtimoiy, shaxsiy hamda intellektual taraqqiyotini ta'minlash, ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari va amal qiladigan qadriyatlarini bilan intellektual rivojlanishida tabiiy fanlarni o'qitishda variativ tushunchalarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.



Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash maqsadida "ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy va xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish" sohalarda tarkibiy islohotlar yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son qarori asosida mamlakatimiz umumta'lim maktablarida mavjud fanlar va darsdan tashqari mashg'ulotlar doirasida tabiiy fanlarni umumlashtirish o'quvchilarda o'zini o'zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o'tish ko'nikmalarini jadallashtirishni taqozo etadi. Maktab ta'limining ilk bosqichlaridayoq o'quvchilarni tabiiy fanlarni o'qitishda variativ yondashuvni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Binobarin, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'rganish mazmunini yangilash, birinchi navbatda, zamonaviy maktab ta'limini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari-ta'lim faoliyatining o'quvchilarda zarur hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'nalishidagi ayrim o'zgarishlar, ta'lim dasturlari talablariga muvofiq, kelajakda o'quvchi yoshlarda zamonaviy global dunyoda o'zlarini qulay his qilish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

Maktab ta'limining ilk bosqichida o'quvchilarda tabiatning go'zalligi, turfa ranglarda jilolanishi bolaning qiziqishlarini yanada orttiradi. U atrofda, yashillikni, rang-barang gullarni, jilolanib oqayotgan suvlarni, qushlarning yoqimli ovozi, osmonda bo'layotgan hodisalarning sababini bilishga intiladi va bu unga o'zgacha zavq beradi. Shu tariqa bolada tabiatga oid ilk tushunchalar haqida tasavvur va tushunchalar bo'la boshlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda variativ didaktik funksiyalar alohida o'rganilib chiqiladi. Avvalo, variativlar - bir xil narsaning turli xil namoyishlari (o'zgartirish, amalga oshirish va xilma-xillik), shuningdek, variativ-bu bir xil obyektни o'ziga xos modifikatsiyasidan mavhum ravishda kiritish, variantlarda shakllangan va har bir variativga xos bo'lgan obyektlar sinfining umumiy xususiyatlarini aks ettirishdir. Maktab ta'lim jarayonida o'quvchilarda tabiatga oid ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda ta'limni formal o'qitishdan holi bo'lgan ta'lim mazmunini har xillashtirish va o'zgartirishga erishish ekanligi anglanadi.

Invariant didaktik funksiyalar variativ didaktik funksiyalar aksi bo'lib, invariant so'zi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "invariant" - o'zgarmas degan ma'noni bildiradi. Ma'lum bir turdagi o'zgarishlar davrida o'zgarmas bo'lib qoladigan xususiyatga ega tushunchalar invariant deyiladi. O'quvchilarda



tabiatga oid ilk invariant tushunchalarni shakllantirishda ta'lim mazmunining bir xillilikka erishishi erishi nazarda tutiladi.

Invariantning har qanday talqini umumiy, o'zgarimas, har xil variantlarda mavjud bo'lgan narsaning mavjudligini o'z ichiga oladi. Shuning uchun invariant variantlarning barchasiga xos bo'lgan va asl ma'no bilan birlashtirilgan, boshqa tillarga tarjima qilingan o'zgarishsiz qoladigan, umumiy narsa sifatida tushuniladi.

Invariant variativlar tomonidan shakllantirilgan va har bir variativga xos bo'lgan obyektlar sinfining umumiy xususiyatlarini aks ettiradigan, o'ziga xos belgilanishidir. Invariant alohida obyekt sifatida mavjud emas. Invariantlar variativlar tomonidan hosil qilingan obyektlarning umumiy xususiyatlari aks etadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda variativ tushunchalarni shakllantirishda tushunchalarning mohiyatiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, tushuncha bu-tafakkur mahsuli hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Masalan, gulni tasavvur qilish uchun unga qarash yetarli. O'sha gul to'g'risida tushuncha hosil qilish uchun esa aniq bilim va ularni tizimlashtirish bo'yicha fikrlarni shakllantirish kerak bo'ladi.

Tushuncha bu narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini gavalantiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko'tarilib borib, tushunchalarni mukammallashtiradi, oydinlashtiradi hamda yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biror bir narsani boshqa narsadan fikran ajratish hisoblanadi. Fanlarni turkumlarga ajratish va tabiiy fanlarni tushunchada umumlashtirish tabiat qonunlarini bilishning muhim shartlaridandir. Har bir fan muayyan tushunchalar bilan ish ko'radi, hamda ularda jamiki bilimlar jamlanadi. Tushuncha hissiy bilish shakllaridan farq qilib, inson ongida to'g'ridan to'g'ri aks etibgina qolmay, u taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi.

Demak, o'quvchilarda tabiatga oid variativ tushunchalarni shakllantirishda umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limi va oliy ta'lim tizimiga uzviyligi va uzluksizligi, o'quvchilarning nazariy bilimi va amaliy komretensiyalari rivojlantirish uzviyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola maktabga kelganidan so'ng, oilada olgan bilimlari tizimlashtiriladi va ularga yangi ma'lumotlar qo'shib boriladi. Bola tabiatga oid tushunchalar haqida aniq ma'lumotlarni ta'lim maskanlarida ola boshlaydi. Shu bilan



birgalikda biz pedagoglar ham ana shu jarayonga mos bo‘lishimiz, bu jarayonni to‘g‘ri his etgan holda birinchi navbatda tabiat qonunlari, tevarak - atrofda keng tarqalgan o‘simlik va hayvonot olami haqida tushunchalarga ega bo‘lishimiz kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda variativ tushunchalarni shakllantirishning quydagi darajalarini ko‘rsatish mumkin:

- o‘quvchining biologik kelib chiqishi;
- tabiiy muhitning tasirchanlik holatida bir va har xillilik;
- uzluksiz ta‘lim muassasalari sharoitlarining invariant va variativligi;
- o‘quvchilarning qiziqishlarida bir va har xillilik.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanlarni o‘qitishda variativ tushunchalarni shakllantirishda yuqorida qayd etilgan jihatlari asosida rivojlantiriladi.

Psixologlarning tadqiqotlari nafaqat maktab o‘quvchilarida bilim tizimini shakllantirishning psixologik mohiyatini, tizimlararo assotsiatsiyalarning ko‘p funksiyali ahamiyatini aniqlashga imkon beradi, balki bilimlar tizimi bu kabi bilimlarning didaktik jihatini hal qilishda muvaffaqiyatli ishlayotganiga amin bo‘ladi. Psixologlar tafakkur o‘z mohiyatiga ko‘ra tizim hosil qiluvchi aloqalar hisobiga rivojlanadigan tizimli jarayon ekanligini nazariy jihatdan isbotladi va tajribada tasdiqlandi.

Miyaning ishida tizimlilik tamoyili fiziologik va psixologik jarayonlar uchun umumiydir. Barcha psixik funksiyalar assotsiativ bog‘lanishlarga asoslanadi va shu asosda yuqori sinf o‘quvchilarining tizimli tafakkuri shakllanadi. Shu bilan birga, ta‘lim mazmunini modernizatsiya qilish dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini idrok etishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Darslikda berilgan mavzulardan o‘simlik, hayvon, jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risidagi tushunchalarni hosil qilishda ularni fikrlab ajrata olish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: 2-sinf “Tabiiy fanlar” darsligidagi “Tirik organizmlar va jonsiz tabiat” mavzusida o‘quvchilarga tirik organizmlar ya’ni erta gullovchi o‘simliklar (lola, binafsha, chuchmoma) bilan tanishtira borib, o‘qituvchi o‘quvchilarga shu o‘simliklarning qismlarga (ildiz, poya, barg, gul) ajratish keyin esa har bir qismning vazifasini aniqlashni tushuntirib boradi. Natijada o‘quvchilar tirik organizmlarni va jonsiz tabiat bilan fikran bir butunga birlashtirishi, ya’ni sintez uslubidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Analiz va sintez fikrlashning eng muhim uslubidir. Ularning yordamida tushunchalar shakllanadi va xotirada mustahkam saqlanadi.

Tabiiy fanlarni variativ yondashuv asosida o‘qitishga qo‘yiladigan didaktik talablar quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarni o‘z o‘lkasining tabiati, er shakli va reliefi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, odam salomatligini saqlash to‘g‘risidagi bilimlarni muqobil yondashuv asosida takomillashtirish;
- o‘qitishning tarbiyaviy samaradorligini oshirish orqali o‘quvchi shaxsini rivojlanish yuqori bo‘lishiga erishish;
- maktabda va o‘quv tajriba maydonchasida mehnat qilish xohishini tarbiyalash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda variativ tushunchalarni shakllantirishda didaktik talablardan tashqari tarbiyaviy, psixologik, gigiyenik talablar ham mavjud bo‘lib, o‘quvchilarni aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, tabiiy jarayonlar uyg‘unligini ta‘minlaydi.

Xususan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hisoblanadi. Tabiiyki, bu vazifani amalga oshirishda tabiiy fanlarning roli katta. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarga ta‘lim berayotgan o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz berayotgan voqea - hodisalar haqida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda variativ tushunchalarni shakllantirish o‘qituvchi darsga tayyorlana turib, o‘quv dasturi va metodik ko‘rgazmalilikka tayangan holda, mazkur darsda qanday asosiy tushunchalar, o‘quv va ko‘nikmalar hosil qilishni, qanday tarbiyaviy g‘oyalari, ular ongiga singdirilishni, o‘quvchilarning idrokiiy qiziqishlarini qondirishga qaysi yo‘l bilan yordam berish lozimligini tushunishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova Z.A. O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlik faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari// Zamonaviy ta‘lim.- Toshkent, 2017. - № 9. - B. 17-21.
2. Ibragimov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: p.f.d., diss. - T.: O‘zPFITI, 2005. - 265 b.
3. Bobomurodov S.M. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi/ Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi/1-jild, 9-son (Yo‘pa). 06-September 2023-yil/ www.in-academy. uz/1-5-b.
4. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 1999. - 30 b.
5. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan dok. diss. -T., 2005.- 391 b.
6. Musayeva M.E. O‘quvchilarda tabiat ne‘matlariga muhabbatni shakllantirish: p.f.n. diss. - T.: O‘zJTU, 2011. - 165 b.
7. Norbo‘tayevX.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini takomillashtirish metodikasi. //“Globallashtirish jarayonida innovatsion ta‘lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos



muammolar, bahslar va echimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - Termiz: “kitob nashr”, 2023. - 1022 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda tabiatga oid variativ tushunchalarni shakllantirish mazmuni, holati, pedagogik jarayonning didaktik xususiyatlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasiga muvofiq kelishi, ilmiy-amaliy ahamiyati va faoliyat tajribasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik tahlili asosida takomillashtirish, shuningdek, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni ta’lim mazmuniga singdirish, barcha fanlardan o‘zaro aloqadorlikda zarur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish jihatlari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы формирования вариативных понятий о природе при преподавании естественных наук в начальном образовании, состояния, дидактических особенностей педагогического процесса, возрастных особенностей учащихся, соответствия уровня знаний, научно-практической значимости и совершенствования на основе психолого-педагогического анализа развития опыта деятельности, а также внедрения в содержание образования теоретических и практических знаний о закономерностях развития природы и общества, излагаются аспекты формирования необходимых знаний, умений, навыков и компетенций во взаимодействии со всеми дисциплинами.

SUMMARY

In the article, the content of the formation of variative concepts of nature in the teaching of Natural Sciences in primary education, the state, didactic features of the pedagogical process, age characteristics of students, compliance with the level of knowledge, improvement on the basis of a psychological and pedagogical analysis of the scientific and practical significance and development of activity experience, as well as, aspects of the formation of qualifications and competencies are described.